

ABUL MUIN AN NASAFIYNING FIQH ILMIGA QO`SHGAN HISSASI*Shamsiddinova Sarvinoz**TATU SF KI 23-04 guruh talabasi**Ilmiyrahbar: Samatov.X.U.**TATU Samarqand filiali*

Annotatsiya: Ushb maqola Islom ilmining buyuk namoyandalaridan biri, islom dini sofligini saqlashga qaratilgan ko‘plab ilmiy asarlar muallifi Abul Muin Nasafiyning ilmiy-ma‘naviy merosini tadqiq etish, asarlaridagi bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan hikmatlarni yosh avlodga yetkazish, uning fiqh ilmiga oid asarlari haqidagi ma‘lumotlarni chuqur isloh qilish masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Qarshi, Qovchin, Fiqh, Makka, Islom, Zikr.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz ona zanimizdan kuplab buyuk allomalar, mutafakkir olimlar va ulamolar yetishib chiqqan. Jamiyat ma‘naviyati, mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o‘z ma‘naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg‘otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi. Shuning uchun ham jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirish O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi, deb belgilandi. Tarixdan ma‘lumki, mamla- katimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo‘lgan, qaramlik va zulmostida qolgan. Buning oqibatida, xalqimizning boy ma‘naviy merosi, urf-odatlar qadsizlanishga mahkum bo‘lgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma‘naviy merosimiz qadsizlantirildi, ko‘plab masjid-u madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma‘naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyat ma‘naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta‘minlovchi ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning yo‘nalishlari belgilab olindi. Mustaqillik sharofati bilan ko‘plab allomalarimiz qatorida Abul Muin Nasafiyning hayoti va asarlarini ilmiy asosda o‘rganish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Islom madaniyati va Islom ta‘limotining yuksak namoyondalaridan biri Abul Muin Nasafiy bo‘lib, to‘liq ismi Abul-Mu‘min Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Mu‘tamid ibn Muhammad Makhul Nasafiydir. Abul Muin Nasafiy tavallud topgan sana haqida yozgan tarixnavislardan biri, arab olimi Xayriddin az-Zirikliy o‘zining “Al-A‘lom” va Umar Rizo Kahlola “Mu‘jam al-muallifiyn” nomli asarida uning 1027-yilda Qarshi shahrining yaqinidagi Qovchin degan qishloqda

tugʻilganini zikr etganlar. Uning vafoti haqida esa aksar manbalarda 1114 sana beriladi. Shunga koʻra, alloma Abul Muin Nasafiy uzoq umr koʻrib, 87 yoshida vafot etgan. Uning qabri Qarshi shahri yaqinidagi Qovchin qishlogʻida joylashgan” deyiladi. Abul Muin Nasafiyning birinchi ustozlari – otasi Muhammad ibn Muhammad boʻlgan. U zot ham oʻz davrining yetuk ulamolardan sanalgan. Abul Muin Nasafiyning otalari Abu Sahl Isfaroyiniydan ilm olgani, undan “Axborul Makka” kitobini rivoyat qilgani manbalarda kelgan. Demak, Abul Muin Nasafiy ahli ilmlar sulolasidan sanalgan.

Umar ibn Muhammad Nasafiy oʻzining “al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand” (“Samarqand olimlari zikrida qand kitobi”) asarida Abul Muin Nasafiy haqida shunday deyilgan: “Sharq Gʻarbning olimi ulamolari Abu Muin Nasafiy ilmining dengizidan bahra topib, u taratgan ziyo nurlarini koʻzlariga toʻtiyo qilib surtganlar”.

Islom ilmining yirik namoyandalari Abulhasan Ashʻariy va Abu Mansur Moturidiy asarlaridan taʼlim olgan Abul Muin Nasafiy islom ilmida yetuk alloma sifatida turli masalalarga oid 15 ga yaqin asarlar yozgan. Ulardan quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. “Al-Umda fi usulil-fiqh” (“Fiqh usullari tayanchi”);
2. “Tabsiratul-adill afi ilmil-kalom” (“Kalom ilmidagi dalillar koʻzgusi”);
3. “At-Tamhid li qavoidit-tavhid fiy ilmil-kalom” (“Kalom ilmidagi tawhid qoidalar uchun yagona kitob”);
4. “Olim va mutaallim” (“Olim va ilm oʻrganuvchi”);
5. “Izoh va mahajja li kavnil-aql hujjatan” (“Aql dalilligini izoh va hujjatlar bilan asoslash”);
6. “Manohijul-aimma fil-furu” (“Imomlarning huquqshunoslik boʻyicha tutgan yoʻllari”);
7. “Muʼtaqidot” (“Eʼtiqodlar”);
8. “Bahrul-kalom” (“Kalom dengizi”). Bu asar alloma ijodining gultoʻji, islom falsafasini tashkil qilgan kalom ilmi boʻyicha eng qimmatli manbadir. Uning qoʻlyozmalari Dubay, Damashq, Iskandariya kutubxonalarida saqlanmoqda. 1886-yili Bagʻdodda, 1908-yili Qohirada nashr etilgan.

Abul Muin Nasafiy “Tabsirat-al-adilla fi usul ad-diyn aʼla tariqati Abi Mansur al-Moturiy”, “Qasiydal-qavoid fi ilm al-aqoid”, “Al-Ifsod li hadʼ al-ilhod”, “Bahr al-kalom”, “Iyzoh al-manhajjati fi kavnil-aqli hujjatan”, “Manohij al-aimmati fil-furu” kabi kitoblarni va “Sharh al-Jomiʼ al-kabir li-sh-Shayboniy fi furuʼ al-Hanafiyya” nomli sharhini yozganlar. Abul Muin Nasafiy “Tabsirat-al-adilla fi usul ad-diyn aʼla tariqati Abi Mansur al-Moturiy” asari orqali shuhrat qozongan. Bu asar imom Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan moturidiya taʼlimotining dunyo boʻylab yoyilishida katta ahamiyatga ega boʻldi. Abul Muin Nasafiyning shogirdlari safida ham hanafiy mazhabining koʻzga koʻringan ulamolari bor, ulardan eng mashhurlari “Badoyiʼus-sanoe” asarining muallifi Abu Bakr Alovuddin as-Samarqandiy, Ahmad ibn

Muhammad Abu Yusr Hazraviy, Abu Bakr Mas'ud Koshoniy, Najmiddin Umar Nasafiy, Abul Hasan Balxiy hamda Mahmud Sog'urchi kabi buyuk olimlardir. Mahmud Sog'urchining ham hanafiy mazhabi borasidagi fiqh kitoblari juda mashhur.

"Al-Umda fi Usulil-Fiqh" (العمدة في أصول الفقه) Mu'in Nasafi tomonidan yozilgan asardir. Mu'in Nasafining "Al-Umda fi Usulil-Fiqh" kitobi usulil-fiqh sohasida katta o'rinni egallaydi. "Al-Umda fi Usulil-Fiqh" Mu'in Nasafi tomonidan yozilgan asarlar orasida eng mashhur va muhim kitoblardan biri hisoblanadi. Ushbu kitob, usulil-fiqhga oid o'zbek tili va tarixiga aloqador fikrlarni o'rganuvchilar uchun muhim bir manba sifatida qabul qilinadi. "Al-Umda fi Usulil-Fiqh", usulil-fiqh ilmi bo'yicha muhim manbalardan biridir. Kitobda, fikh usulining asosiy qoidalari, fikh qoidalarini tushunish, istinbat usullari, qiyos va istisno qoidalarini tahlil qilish, ijma, qiyos va istisno muhim masalalar va shartlar to'g'risida fikr bildirish, ijma va qiyosning rolini taqqoslash va boshqa usuliy mavzular ko'rsatiladi.

Mu'in Nasafi "Al-Umda fi Usulil-Fiqh" kitobida, usulil-fiqhning amaliy qismiga ham tushuntirish beradi. Kitob usulil-fiqhning mantiqiy qoidalari va tartiblari bilan birga, muhim masalalar va usullar bo'yicha ko'rsatmalar va misollar bilan ta'minlanadi. Mu'in Nasafi Islom fiqhi ilmiga katta qo'shilish qo'ygan fukaholar va o'zbek mutafakkirlardan biridir. Uning islom fiqhi ilmiga qo'shilishining asosiy sababi, ushbu sohada o'zining keng tajriba va ilmiga ega bo'lishidir. Mu'in Nasafi, islom fiqhi mavzularida keng bilim va o'zining o'zbek milliy tarix va madaniyatiga oid tushunchalarga ega bo'lganligi bilan tanilgan. Mu'in Nasafi aynan usulil-fiqh sohasidagi ilmiy ishtiyoq va yutuqlari bilan taninadi. Uning islom fiqhi ilmiga qushgan hissasi, o'zbekistonlik fukaholarning va talabalarning fikr bildirish va tadqiqotlarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lganligidir. Uning asarlari o'zbekiston fiqhiy madrasalari va ilmiy markazlarda o'qitishning muhim asarlari sifatida foydalaniladi va ushbu sohaning o'zbek tili va madaniyati bilan bog'liq tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Mu'in Nasafi usulil-fiqh sohasidagi yutuqlari bilan o'zbekistonlik fukaholarning ilmiy ishtirokida muhim ahamiyatga ega bo'lganligi bilan taninadi. Uning fikriyatida o'zbekiston islomiy madaniyatining, milliy tarixining va o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos bo'lganliklari ko'rib chiqiladi. Bu esa, Mu'in Nasafining islom fiqhi ilmiga qushgan hissasini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-25-fevral kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Qarshi tumanidagi kalom ilmi bo'yicha taniqli olim "Abul Muin Nasafiy" tarixiy majmuasini qayta ta'mirlash, uning negizida kutubxona, muzey tashkil etish yuzasidan topshiriq va ko'rsatmalar berdi. Yurtboshimizning 2017-yil 15-iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi videoselektorda so'zlagan nutqida "Qashqadaryoda Abul Muin Nasafiy markazida aqida ilmi maktabini tashkil etsak, o'ylaymanki, bu juda foydali bo'ladi.

Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalashda bu maktablar tayanch bo'lib xizmat qiladi", degan edi.

Bugungi kunda Abul Muin Nasafiy ziyoratgohida 500 o'rinli masjid, kutubxona, muzey, ma'muriy bino, tahoratxona, choyxonalar va aqida ilmi maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. 2019-yil 25-dekabr kuni Qashqadaryo viloyati hokimligida Abul Muin Nasafiyning ma'rifiy faoliyatiga bag'ishlangan "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashgan buyuk alloma" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Mazkur xalqaro konferensiyada Rossiya, Turkiya, Misr, Bangladesh, Tojikiston va Qirg'iziston kabi davlatlarning yetuk ulamolari va sohaning ko'zga ko'ringan mutaxassislari hamda yurtimizdagi yetakchi olimlar va soha mutaxassislari ishtirok etdi. Konferensiya ishtirokchilari Abul Muin Nasafiyning diniy, ilmiy va ma'rifiy faoliyatiga doir o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. Xulosa qilib aytish mumkinki Abul Muin an Nasafining yozgan asaralari bugungi kunda xam kuplab din ilmini o'rganayotgan kishilarga va diniy ulamolarga urnak bulib kelmoqda. Abu'l-Mu'in al-Nasafi islomiy fiqh va mantiq sohasida o'zga olimlar bilan hamkorlik qilgan va ularga ta'sir ko'rsatgan. Uning fikrlari va asarlarining ko'plab qismlari hozirda ham o'qitish va tadqiqotlar asosida o'qish-majlislarida foydalanilmoqda. Uning hayoti va ijodi islomiy g'oyalar va ilm-fan sohasidagi qadriyat va muhimlikka ishonch hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati

1. Ubaydulla Uvatov, Saidmuxtor Oqilov, Ergash Daminov. Moturidiya ta'limoti va Abu Muin Nasafiy ilmiy merosi. – Toshkent: "Movarounnahr", 2018
2. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/1-ziyouz-com-kutubxonasi>
3. Ma'naviyat yulduzlari (To'plovchi va mas'ul muharrir M. Xayrullaev). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
4. <https://oyina.uz/uz/generation/118> Bo'ri Qodirov "Ma'naviyatimizning buyuk siymolari" maqola matni.
5. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Elshod3118/Mustaqillik_yillarida_manaviy_taraqqiyot